

ALALIYA NUTQ NUQSONLARI VA UNING TURLARI

Ikromova Dilshoda

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Ilmiy raxbar: D.D.Oribboyeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi og'ir nutq nuqsonlaridan biri bo'lgan alaliya to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib alaliya turlari, kelib chiqish sabablari to'g'risida, shuningdek bu soxada olib borilgan tadqiqotlar to'g'risida yoritilgan. Bundan tashqari alalik bolalarning o'ziga xos belgiari haqida ma'lumotga keltirilgan.

Kalit so'zlar: giperakuziya, motor alaliya, sensor alaliya, vositali buzilishlar, hissiy buzilishlar, buzilishlar, zaif eshtuvchilar.

Аннотация: В статье представлены сведения об алалии, которая является одним из тяжелых речевых дефектов современности. Также описаны виды алалии, причины их возникновения, а также исследования, проводимые в этой области. Вы получите информацию об уникальных особенностях детей.

Ключевые слова: гиперacusия, двигательная алалия, сенсорная алалия, инструментальные нарушения, сенсорные нарушения, расстройства, нарушения слуха.

Abstract: This article presents information about alalia, which is one of today's severe speech defects. The types of alalia, the causes of their origin, as well as the research conducted in this field are also written. You will get information about the unique characteristics of children

Key words: hyperacusis, motor alalia, sensory alalia, instrumental disorders, sensory disorders, disorders, hearing impaired.

Bolalar orasida uchraydigan patologik holatlar ichida, ayniqsa bugungi kunda og'ir nutq nuqsonlarining keng tarqalganligini ko'rishimiz mumkin. Alaliya ham og'ir nutq nuqsoni hisoblandi.

Alaliya-onaning homladorlik paytida yoki bolaning dastlabki rivojlanish davrida nutq shakillanishiga qadar bosh miya qobig'ining nutq zonalaridagi organik jarohatlanishi oqibatida yuzaga keladi. Bu nuqson markaziy xarakterdagi organik nutq buzilishidir. Alaliyada bosh miyaning ayrim po'stloq zo'nalarida nerv tolalari shakillanishining orqada qolishi kuzatiladi. Alaliyada bosh miyaning jarohatlanishi perenatal yoki ilk postnatal davrida yuzaga kelishi mumkin.

□Alaliya□ atamasi (grekcha a-yo`q, lotincha lalio-nutq) tarjimasida nutqning yo`qligi, nutqsizlik holati-nutq buzilishlariga doir adabiyotlarda ko`p kuzatiladi.

Alaliyani o`rganishda uzoq vaqt mobaynida uning kelib chiqish sabablarini

turlicha ko`rsatganlar. R.Koyen (1888), A.Guttsman (1924), E.Freshels (1931), M.Zeeman (1962) va boshqalarning fikricha, alaliya bolaning ona qornida yoki rivojlanish bosqichida shamollash yoki alimantar trofik moddalar almashinuvining patalogik jarayoni natijasida kelib chiqadi deb tariflashgan.

A.Treytel (1901) fikricha alaliya diqqat va xotirani yetarli emasligining natijasidir. A.Libman (1901) alaliya nutqning to`liq emasligini intellectual yetishmovchilik bilan bog`laydi. A.Iving(1963) bolalarda nutqning to`liq rivojlanmaganligi asosida so`zning motor obrazi yo`qligini miya buzilishlariga bog`lab ko`rsatadi.

Alaliya bilan og`rigan bemorlarda nutq bilan bog`liq bo`lmagan buzilishlar, jumladan, hissiy (sezuvchanlik va idrok etishning buzilishi), vosita (harakat va muvofiqlashtirishning buzilishi) va psixopatologik kasalliklar ham bo`lishi mumkin.

Alaliyaning kelib chiqishi va rivojlanish dinamikasini ayrim mualliflar sxemali tarzda quydagicha ta`riflaydilar: u yoki bu sabab bosh miya po`stlog`ining butun sensomotor sohasining jarohatlanishini keltirib chiqaradi. Buning oqibatida total alaliya yuzaga keladi. So`ngi yillarda miya modasining rivojlanishi va kompensator omillarining ta`siri ostida jarohatlanishning asosiy o`chog`I po`stloqning sensor yoki motor sohalari yuzaga keladi. Shunga ko`ra alaliya ikkiga bo`linad

- 1) Motor alaliya
- 2) Sensorli alaliya

Motor alaliya-bu markaziy xarakterdagi organik buzilishlar natijasi hisoblanib, nosog`lom nevrologik ko`rinish nutqning rivojlanish borasida oddiy orqada qolishiga olib keladi.

Motor alaliyasi bo`lgan bolalarda ekspressiv til buzilishlari, nutq praksiyasi, nutqning ravonligi, artikulyatsiyaning buzilishi va boshqa faol nevrologik alomatlar mavjud bo`ladi, ammo ular o`zlariga qaratilgan nutqni tushunadilad va idrok eta oladilar.

Motor alaliyada murakkab harakat defferensiyarovkalari qiyinchilik bilan o`zlashtiriladi, dinamik artikulatsion stereotik shakillanmaydi-tovushlarni to`g`ri yoki noto`g`ri takrorlaganda tovushlarning birikishi qiyinlashadi.

Motor alaliyali bolalarda nutq aparatining nozik harakat koordinatsiyalari shakillanmaydi. Nutq harakat analizatorining anomitik-sintetik buzilishlari turli ko`rinishlarga ega: oral apraksiya, ketma-ketlikning buzilishi va boshqalar. Miya po`stlog`I rivojlanmaganlik darajasi qanchalik yuqori bo`lsa, nutq funksialarining shakillanmaganligi shunchalik chuqur va qo`pol bo`ladi.

Sensor alaliya motor alaliyaga nisbatan kam o`rganilgan. Bu holat malum ma`noda sensor alaliyani amalyotda juda kam o`rganilishi bilan bog`liq. Sensor alaliyani mustaqil nutq buzilishi sifatida ko`rinishi haqida hozirgi kunda ham ayrim mualliflar aniq bir fikir ayta olmaydilar. Nutqiy tushunishning yetishmasligi yoki

yo`qligida, eng avvalo, odamning eshtish holati haqida savol tug`iladi. Olimlarning fikriga ko`ra inson qachonki to`g`ri eshitsagina to`g`ri gapira oladi.

Sensor alaliya birlamchi nutqiy tovush taxlilini amalga oshiruvchi nutq eshtuv analizatorining ildizi faoliyatini og`ir analitik-sintetik buzilishlari kuzatiladi. Bunday bolalarda fonematik idrok shakllanmaydi, fonemalar differensiallashmaydi va so`z yahlit idrok eshtilmaydi, akustik, gnostik jarayonlar rivojlanmaydi va nutqiy tovushlarni idrok etish qobilyati pasaygan bo`ladi. Bu esa nutq qo`zg`atuvchilarni taxlil va tarkibiy buzilishiga, predmet va obraz o`rtasidagi bog`liqlikning shakllanmasligiga olib keladi. Bola o`ziga qaratilgan nutqni eshtadi, ammo tushunmaydi. Sensor alaliyada zaif eshtuvchilardan farqli ravishda giperakuziyalar kuzatiladi (giperakuziya-atrofdagilar uchun befarq bo`lgan tovushlarga tovushlarga sezgirlikning oshishi). Masalan, chakillab tomayotgan suv ovozi, eshik g`irchillashi va h.k. Zaif eshtuvchi bolalar bu signallarni idrok etmaydilar. Sog`lom odamlar esa bu tovushlarni eshtadilar, ammo ularga beparvo qaraydilar, ularga ta`sirlanmaydilar. Sensor alaliyali bolalar bunday tovushlarni keskin idrok qiladi, ularga salbiy reaksiya ko`rsatadilar: bezovtalanadilar, yig`laydilar, quloq va bosh og`rig`idan shikoyat qiladilar.

Sensor alaliyaning og`ir ko`rinishlarida bola atrofidagilar nutqini tushinmaydi, uni ma`no kasb etmaydigan shovqin deb hisoblaydi, hatto o`z ismiga ham javob reaksiyasini bermaydi, nutq tovushlari va nutqiy bo`lmagan shovqinlarni farqlamaydi, barcha nutqiy va nutqiy bo`lmagan qo`zg`atuvchilarga befarq bo`ladi.

Ayrim holarda esa bola bazi kundalik turmushda ishlatiladigan so`zlarni tushunadi. Bola o`ziga qaratilgan nutqni qabul qilib, noto`g`ri javob beradi.

Xulosa o`rnida og`ir nutq nuqsoniga ega bolalarga to`g`ri tashxis qo`yish va ular bilan olib boriladigan korreksion mashg`ulotlarni to`g`ri va tizimli ravishda olib borilishi lozim. Alalik bolalarda alalitaning qaysi turi ekanligini anoqlash kerak. Sensor alaliyani zaif eshtuvchi bolalardan farqlay olish, ular bilan logopedik mashg`ulotlarni olib borish lozim.

Foydalanilga adabiyotlar ro`yxati:

1. Ayupova M.Y. logopediya darslik Toshkent O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007
2. Ayupova, Mukarram Yu. "Speech Preparation of Preschool Children with Speech Deficiency for School Education." Journal of Pharmaceutical Negative Results (2022): 2345-2353.
3. Александрова К.В. Логопедическая работа по развитию связной речи у старших дошкольников с моторной алалией / К.В. Александрова, Е.А. Цивильская // Грани науки 2014. - Казань: КФУ, 2014. - С .75-76.
4. Alaliya nutq kamchiligi va uning kelib chiqishi sabablari. In-academy.uz <https://in-academy.uz>

5. Sensor alalik bolalatning fonematik idroki <https://cyberleninka.ru>
6. Nutqning tizimli buzilishi Alaliya, afaziya-TDPU.uz <https://majmua.tdpu.uz>
7. Oribboyeva, D. D., & Ikromova, D. (2024). Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasining o'ziga xosligi, aqli zaiflik turlari. *Science and Education*, 5(1), 287-291.
8. Ibragimova, D. R. (2024). O'QISHGA BO'LGAN QIZIQISHNI OSHIRISH, O'ZLASHTIRMASLIKNI OLDINI OLUVCHI OMIL SIFATIDA. *Results of National Scientific Research International Journal*, 3(1), 194-200.
9. Oribboyeva, D. D. (2020). SOCIAL COMPETENCE AS AN INTEGRAL PART OF THE TEACHER'S PROFESSIONAL MATURITY. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(11), 347-353.
10. Ориббоева Д. Д. THE INFLUENCE OF SOCIAL COMPETENS ON PROFESSIONAL CHOICE //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 9. – С. 256-261.